

MULOQOT JARAYONIDA GENDEROLOGIK XUSUSIYATLARINING AKS ETISHI

Yusupova Gulxumor

Urganch davlat universiteti,

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi

E-mail: gulhumor.yusupova94@mail.ru

Sobirova Shohsanam

Urganch davlat universiteti,

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: shokhsanamsobirova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada muloqot jarayonida uchraydigan genderologik xususiyatlarning tahlili yoritib berildi. Genderlingvistika zamonaviy tilshunoslikning yangi sohasi ekanligi va ayollar va erkaklar muloqot jarayonida qanday til birliklarini qo'llashlari haqida bayon qilingan. O'zida genderologik xususiyatlarni aks ettiruvchi maqollar ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Muloqot, og'zaki muloqot, og'zaki bo'lmagan muloqot, gender, jins, genderlingvistika, gender stereotiplar

ABSTRACT

This article discusses the genealogical features encountered in the communication process. It is explained that gender linguistics is a new field of modern linguistics and what language units women and men use in communication. Articles reflecting genealogical features are also analyzed.

Keywords: Communication, verbal communication, non-verbal communication, gender, gender, gender studies, gender stereotypes

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются генеалогические особенности, возникающие в процессе общения. Объясняется, что гендерная лингвистика является новой областью современной лингвистики и какие языковые единицы используют женщины и мужчины в общении. Также анализируются статьи, отражающие генеалогические особенности.

Ключевые слова: Коммуникация, устная коммуникация, невербальная коммуникация, гендер, гендер, гендерные исследования, гендерные стереотипы

*Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir.
(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-modda.)*

KIRISH

Muloqot kishilik jamiyati mavjudligining zaruriy shartlaridan biridir. Muloqot insonlar o'rtasidagi his tug'ularni, fikrlarni, g'oyalarni, istak-xohishlarni bayon qilish uchun qo'llanuvchi eng muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Muloqot jarayoni tilshunoslik, psixologiya, tarix, mantiq, pedagogika va boshqa ayrim fanlarning ajralmas qismi sifatida dunyo ilm-fanida o'rganilib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani yoritish jarayonida tilshunoslikning tasvirlash va qiyosiy metodlaridandan foydalanildi. "Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish" nomli ilmiy maqolalar to'plami, T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqovlar muallifligi ostida 2005-yilda nashrdan chiqqan "O'zbek xalq maqollari" kitobi asosiy manba bo'lib hizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muloqot jarayonining bir qancha turlari mavjud: og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot. Og'zaki muloqot, ya'ni til orqali muloqot qilish jarayonidir. Og'zaki bo'lmagan muloqot, nomidan ham ayon bunday muloqot turlarida so'zlar qatnashmaydi. Yuz ifodalari, pontamima, imo-ishoralar, vizual aloqa muloqotning og'zaki bo'lmagan qismini tashkil qiladi.

Muloqot deb ataluvchi murakkab ijtimoiy jarayonda erkak va ayollar nutqi ham o'z o'rniga ega. Fikrimizning tasdig'iq sifatida keyingi yillarda tilshunoslik ilmida katta qiziqish bilan o'rganilayotgan soha gendertilshunoslikni misol sifatida keltirishimiz kifoya. Gendertilshunoslik asosan g'arb tilshunosligida ko'p tadqiq qilinayotgan soha hisoblanadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz tilshunos va sotsialog olimlari tomonidan ham ushbu sohani o'rganish jadallik bilan o'sayotganining guvohi bo'lyapmiz. Oldinlari olimlar tomonidan gendertilshunoslik sohasiga uncha katta e'tibor qaratilmagan. Lekin vaqt o'tishi bilan ushbu soha olimlar fikrini o'ziga tortdi va turli paradigmalarda o'rganila boshladi.

Gendertilshunoslik dastlab XX asr so'nggi yillarida g'arb tilshunoslik ilmida va keyinchalik sharqda o'rganila boshlandi. "Gender" tushunchasi ingliz tiliga lotin tilidagi *genus* so'zidan o'tgan bo'lib, "jins" degan ma'noni anglatadi [2;417].

Jins va gender tushunchalarini farqlash borasidagi birinchi urinish 1968-yili Kaliforniya universiteti professori Robert Stoller tomonidan amalga oshirildi. Gender lingvistikada ayollar va erkaklarning bir-biridan kommunikativ jihatdan qanday farq qilinishi chuqur o'rganiladi. Umuman olganda, ikki xil jins vakillarining nutqida juda katta farq bo'ladi.

Tilimizda shunday soʻzlar borki, ular faqat maʼlum bir jins vakili tomonidan qoʻllaniladi. Tadqiqotchilar fikricha, ayollarining nutqi erkaklarning nutqidan leksik, grammatik va fonetik jihatdan farqlanib turadi. Tilshunos olimlar ayollar nutqining 30% iboralardan tashkil topgan degan xulosaga kelishgan. Kuzatishlar natijasida ayollar va erkaklar nutqidagi qarama-qarshilik yaqqol koʻzga tashlanadi. Buni tahlil qilish uchun, avvalombor, ayollarning turli xil nutqiy vaziyatlarda oʻzlarini qanday tutishlari haqida toʻxtalib oʻtsak.

Dastavval, salomlashish jarayonidagi farqlarni tahlilga tortsak. Ayollar koʻchada yoki ish joylarida biron bir tanishlarini koʻrib qolishsa, ancha payt hol-ahvol soʻrashib turishadi. Bu paytda oldin ham suhbatlashilgan mavzularda hech zerikmasdan gapirishadi va doʻstlarining gaplarini boʻrttirib boshqa bir insonga yetkazishlari ham koʻp kuzatiladi. Erkaklar salomlashish jarayonida koʻp hollarda bir-ikkita soʻzdan foydalanadi va suhbatning qisqa va londa boʻlishini yoqtirishadi. Ular koʻpincha “Salom. Ishlaringiz yaxshimi” deb suhbatlarini tugatishadi. Erkaklar biron-bir mavzuda gapirishdan oldin yaxshilab oʻylab keyin oʻz fikrlarini bildirishadi. Bu esa ayollardan ancha farq qilishlarini yana bir koʻrinishidir. Ayollar nutqida mubolagʻa va kinoyani ham koʻp uchratish mumkin. Lekin erkaklar nutqida aniqlik, ravonlik, toʻgʻrisoʻzlik, qisqalik koʻpincha oʻz aksini topadi.

Gʻarb tilshunoslarining fikricha, ayollar istalgan vaziyatdan erkaklarga qaraganda tez va oson chiqib ketishadi. Bunga ayollarning erkaklarga qaraganda oʻz nutqida koʻproq yolgʻon qoʻllashlaridadir.

His tuygʻular haqida gap ketganida, aytish mumkin ayollar tabiatan juda taʼsirchandir va oʻzlarining his-tuygʻularini bemaʼlol boshqa insonlar oldida ayta olishadi. Bu esa erkaklardan psixologik jihatdan farq qilishini yana bir isbotidir. Ayollar suhbat qurayotganlarida vaqt juda tez oʻtgandek tuyuladi va toʻxtamasdan oddiy mavzularda ham soatlab gapira olishadi. Ayollarning katta qismida muloqot qilishga ehtiyoj doimiy mavjud. Ayollarning koʻpchilik qismi ishxonada beriladigan qisqa dam olish vaqtlarida ham kimdir bilan suhbatlashishni yoqtirishadi.

Leksikaning qoʻllanilishi ham ayol yoki erkakning qaysi ijtimoiy guruh qarshisida turishiga qarab tanlanadi. Rasmiy muloqot jarayonlarida ayollar kuzatilganida shuning koʻp guvohi boʻlganmizki, ular bunday davralarda oʻzlarini ancha jiddiy tutishga va kam gapirishga, doʻstlari davrasida qoʻllaydigan soʻzlarni qoʻllamaslikka harakat qilishadi. Ayollar bunday suhbatlar davomida oʻzlarining fikrlarini juda ehtiyotkorlik bilan bildirishadi. Agar suhbatdoshining fikrlari unga yoqmasa, ranjitib qoʻymaslik uchun yoki nizolar kelib chiqmasligi uchun mavhum boʻlib qoladigan soʻzlarni koʻp qoʻllashadi. Masalan, shartnoma tuzish paytida

boshqa bir shaxs tomonidan berilgan taklif ularni qoniqtirmasa, ular: “*Bu tog’risida yana bir marotaba yaxshilab o’ylab chiqsak nima deysiz?*”, “*Bu masalaga birozdan so’ng qaytsak qanday bo’lar ekan?*”, kabi ifodalarni keng qo’llashadi.

Erkaklar muloqot vaqtida suhbatdoshining fikrini oxirigacha tinglashadi va so’zlarini ko’p hollada bo’lib qo’ymaslikka harakat qilishadi. Suhbat jarayonida maqtanishni xush ko’rishmaydi va shaxsiy buyumlarini ko’z-ko’z qilishdan qochishadi. G’iybat qilish esa erkaklarga xos emas deb hisbolashishadi va bunga amal qilishadi.

Xalq og’zaki ijodi namunalari bo’lmish maqollarda ham genderologik xususiyatlarni uchratish mumkin. Maqollarda gender steriotiplar o’z aksini topadi. Maqollar hech qachon o’z o’zidan paydo bo’lmaydi. Kundalik hayotda uchraydigan voqea hodisalar natijasida aytilgan ibratli so’zlar yillar osha avloddan avlodga og’zaki tarzda o’tib shu xalqqa xos xususiyatlarni aks ettiradi. Quyida xalq og’zaki ijodi namunalar bo’lmish maqollardan ayrimlarini tahlilga tortdik.

	Erkaklarga xos maqollar	Ayollarga xos maqollar
1	<i>Bozorga - baqqol yigitga-soqol.</i>	<i>To’rt xotin bir bo’lsa, kasbi o’lan aytish</i>
2	<i>Yigit kishiga 70 hunar kam</i>	<i>Qiz bola-gul lola</i>
3	<i>Yolg’iz yigit yov olmas</i>	<i>Qiz bola- uy ziynati</i>
4	<i>Yigit ko’rki- ot yarog’</i>	<i>Kelinning chiroyi-chaqaloqda.</i>
5	<i>Erning so’zi-elning so’zi</i>	<i>Ayol bor-olam bor</i>
6	<i>Erdan er o’zsa ham, eldan o’zolmas</i>	<i>Xotin qizning ishini tovuq cho’qib bitirolmas</i>
7	<i>Yigit degan er bo’lur, mehnat qilsa sher bo’lur</i>	<i>Eringan qiz erdan qolar</i>
8	<i>Yigitning bahtini mehnat ochar</i>	<i>Erinchoq qizni erga ber, er olmasa yerga ber</i>
9	<i>Erning g’ayrati tog’ni qo’zg’atar</i>	<i>Qizi borning, nozi bor</i>
10	<i>Yigitga mardlik yarashar</i>	<i>Yalqov xotinga bola - bahona</i>
11	<i>Yigit so’zidan, arslon izidan qaytmaydi</i>	<i>Yaxshi boisang kelinchak, Bo’la ko’rma erinchak</i>

O’zida genderologik xususiyatlarni aks ettiruvchi maqollarni nafaqat o’zbek tilida, xususan boshqa ko’plab xorijiy tillarda ham uchratish mumkin. Xususan, nemis tilida ayol va erkakka xos bo’lgan juda ko’plab maqollar mavjud.

	Sprichwörter für Männer <i>Erkaklarga xos maqollar</i>	Sprichwörter für Frauen <i>Ayollarga xos maqollar</i>
1	Ein Mann muss immer mehr wollen, als er leisten kann- <i>Erkak kishi har doim o'z imkoniyatlaridan ko'prog'ini xohlaydi</i>	Auf eine Frau muss man immer eine Stunde warten – <i>ayolni har doim bir soat kutish kerak</i>
2	Ein Mann ohne Frau ist ein Baum ohne Laub und Zweige- <i>Ayolsiz erkak bu barglari va novdalari bo'lmagan daraxt kabidir</i>	Besser keine Frau als eine Närrin – <i>ahmoq xotindan ko'ra uni bo'lmagani yaxshiroq</i>
3	Geld macht den Mann- <i>Pul erkakni erkak qiladi</i>	Frauen sind die Schlaunen - <i>ayollar ayyorlar</i>
4	Ein mütterloser Ehemann macht eine glückliche Ehefrau- <i>Onasi yo'q erkak ayol qadrini biladi va rafiqasini baxtli qiladi</i>	Die Frauen platzen, wenn sie schweigen sollen - <i>ayollar jim turishsa, portlab ketishadi</i>
5	Jeder Mann ist König in seinem Haus- <i>Har bir erkak o'z uyining shoxidir</i>	Die Frau macht oder verdarbt die Haushalt – <i>ayol ro'zg'orni but qilishi ham, yo'q qilishi ham mumkin</i>
6	Männer, die viel lieben, werden viel arbeiten- <i>Ko'p sevadigan erkaklar ko'p ishlaydi</i>	Die Frau hat dem Teufel die Suppe gekocht und sie ihn dann essen lassen- <i>Ayol kishi shaytonga ham sho'rva pishirib ichirishga qodir</i>
7	Männer lieben mit Augen- <i>erkaklar ko'zi bilan sevadi</i>	Die Frau kommt immer zu spät- <i>Ayollar har doim kechikib kelishadi</i>
8	Es gibt zwei gute Männer, der eine ist tot und der andere noch nicht geboren- <i>Erkak zotining yaxshisi 2 xil bo'ladi: 1) vafot etgani, 2) hali tug'ulmagani</i>	Die erste Frau ist die Magd, die zweite die Herrin – <i>Birinchi xotin xizmatkor, ikkinchi xotin beka</i>
9	Wer seiner Frau alles erzählt, kann nur frisch verheiratet sein- <i>kim xotiniga hamma narsa haqida gapirib bersa, demak u yangi uylangan</i>	Die hässlichste Frau ist die beste Haushälterin- <i>Eng xunik ayol, eng yaxshi uy bekasidir</i>
10	Zwei gute Tage im Leben eines	Eine Frau fragt mehr, als hundert

	<i>Mannes: Wenn er heiratet und wenn er seine Frau begräbt- Erkek hayotidagi 2 ta yaxshi kun. 1) uylangan kuni, 2) xotinini dafn qilgan kuni</i>	<i>Männer beantworten können- Bitta ayol, 100 ta erkak javob beraoladigandan ham ko'p savollar berishga qodir</i>
11	<i>Kleider schätzen wir, wenn sie neu sind, Männer, wenn sie alt sind- Biz kiyimlarimiz yangiligida, erkaklarni esa qariganlarida qadirlaymiz</i>	<i>Frauen und Geld regieren die Welt- Ayollar va pul dunyoni boshqaradi</i>

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkin, gender ko'p aspektli tushuncha hisoblanadi. Tilshunoslikning bu bo'limi barcha sohalar bilan uzviy bog'liqdir.

Suhbat vaqtida ikkala jins vakiliga ham turli xil omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayollar, yuqorida ta'kidlanganidek, muloqot jarayoniga erkaklarga qaraganda osonroq va tez kirishadilar. Erkaklar esa muloqotga kirishga biroz qiynalishadi va suhbat paytida mavzudan tashqari savol berilsa, ular bu savollarga iloji boricha javob berishmaydi. Ayol va erkak o'rtasidagi farqlar ayniqsa xalq maqollarida o'z aksini topadi.

REFERENCES

1. Mirzayev T, Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. T.: Sharq, 2005.
2. Fries G. Brock Haus. Enzyklopädie in 30 Bänden. Mannheim, Wissen Media Verlag, 2006.
3. Günther D, Werner S. Duden, Band 11: Redewendungen und sprichwörtliche Redensarten. Mannheim, Leipzig, Wien, Zürich.: Dudenverlag, 1999.
4. <https://www.redensarten-index.de/suche.php>
5. <https://www.duden.de/>